“”ALKIMYOGAR” ROMANIDA O’ZLIKNI ANGLASH TASVIRI

Hamdamova Oqilaxon Otabek qizi

O’zbekiston Milliyuniversiteti Jurnalistikasi

va o’zbek filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Paulo Koeloning “Alkimyogar” asari tahlil qilinadi. Insoniyat tafakkurida eng qadimiy va muhim savollardan biri - o’zlikni anglash masalasidir. Bu g’oya nafaqat G’arb adabiyotida, balki Sharq falsafasida ham markaziy o’rin egallaydi. “Alkimyogar” asari aynan shu mavzuni yoritib, [7]Sharqona falsafiy qarashlar bilan uyg’unlashgan holda talqin etadi. Muallif roman orqali insonning o’z “men”ini topish jarayonini hayotiy sinovlar va ruhiy izlanishlar orqali ochib beradi.

KALIT SO’ZLAR: Paulo Koelo, “Alkimyogar, sharq falsafasi, Santiago, Maliksiddiq, murshid va shogird an’anasi, tabiat va koinot, o’zlikni anglash

Abstract: This article analyzes Paulo Coelho's "The Alchemist". One of the oldest and most important questions in human thought is the question of self-realization. This idea occupies a central place not only in Western literature, but also in Eastern philosophy. The work "The Alchemist" illuminates this very topic and interprets it in harmony with [7] Eastern philosophical views. Through the novel, the author reveals the process of a person finding his "self" through life's trials and spiritual quests.

KEYWORDS: Paulo Coelho, "The Alchemist, Eastern philosophy, Santiago, Melchizedek, tradition of mentor and disciple, nature and the universe, self-awareness.

Аннотация: В данной статье анализируется роман Пауло Коэльо «Алхимик». Один из старейших и важнейших вопросов человеческой мысли — вопрос самореализации. Эта идея занимает центральное место не только в западной литературе, но и в восточной философии. Произведение «Алхимик» освещает именно эту тему и интерпретирует её в гармонии с [7] восточными философскими взглядами. Через роман автор раскрывает процесс обретения человеком своего «я» через жизненные испытания и духовные поиски.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Пауло Коэльо, «Алхимик», восточная философия, Сантьяго, Мелхиседек, традиция наставника и ученика, природа и Вселенная, самосознание

KIRISH

Insoniyat tarixida o’zlikni anglash masalasi doim muhim o’rin tutgan. Har bir inson hayot davomida “men kimman?” va “qanday yashashim kerak?” degan savollarga javob izlaydi. Paulo Koeloning “Alkimyogar” asari aynan shu savollarga badiiy-falsafiy javob beruvchi asarlardan biridir. Asaarda ilgari surilgan g’oyalar Sharq falsafasi bilan uyg’un holda namoyon bo’ladi.[6]Xususan, tasavvuf ta’limotidagi “o’zini tanigan-Robbini tanir” degan hikmat roman mazmuni bilan hamogangdir. Muallif o’z qahramoni orqali insonning tashqi dunyodan ichki olam sari qilgan sayohatini tasvirlaydi.

ASOSIY QISM

Paulo Koeloning “Alkimyogar” romani murakkab kompozitsiyaga ega bo’lib, unda bir vaqtning o’zida bir nechta voqea yo’nalishlari yoritiladi. Asar bosh qahramoni Santyago dastlab oddiy cho’pon bo’lib, moddiy xazinani izlash uchun yo’lga chiqadi. Biroq uning bu yo’li ichki kamolot sari harakat ekanligi asta-sekin ayon bo’ladi. Bu iqtibos insonning haqiqiy boyligi tashqi emas, balki ichki dunyosi bilan bog’liqligini anglatadi. [7]Sharq falsafasida

ham inson qalbi haqiqatni anglash markazi sifatida qaraladi. Romanda asosiy tushunchalardan biri – “Shaxsiy taqdir”dir. [2]Maliksiddiq Santyagoga shunday deydi: “Agar sen nimanidir chin dildan istasang, butun koinot uni amalga oshirishga yordam beradi”. Bu fikr Sharq falsafasidagi tavakkal tushunchaga yaqin.[6]Tasavvufda inson o’z yo’lini topib, unga qat’iy ishonsa, ilohiy yordamga erishadi. Santyago ham aynan shu ishonch orqali o’z yo’lidan og’ishmaydi.

Asarda uchraydigan Alkimyogar obrazi Sharq falsafasidagi murshid timsoliga mos keladi.[2]U Santyagoga quyidagi hikmatni o’rgatadi “Yuragingni tinglashni o’rgan. U hamma narsani biladi”.[6]Tasavvufda ham murshid shogirdni ichki haqiqat sari yo’naltiradi, ammo, haqiqatni anglash bevosita insonning o’ziga bog’liq. Bu jihat romanda juda aniq aks ettirilgan.

Shuningdek, “O’zlikni anglash” g’oyasi juda ko’p adabiy va falsafiy asarlarda markaziy mavzu bo’lgan, shuning uchun “Alkimyogar”asarini Antoine de Saint Exuperiyning “Kichkina shahzoda” asari bilan qiyoslasa bo’ladi. Har ikkala asarda ham qahramon safarga chiqadi. Tashqi sayohat aslida ichki o’zlikni anglashga olib keladi. Bu ikki asarda hayotning haqiqiy qadri oddiy narsalarda ekanligi ko’rsatiladi. Bu asarlarda qahramonlar sayohat orqali hayot haqiqatlarini anglaydi. “Kichkina shahzodada” bu jaryon bolalarcha sodda falsafa orqali ifodalansa, “ Alkimyogar”da insonning orzusi va taqdiri markazga qo’yiladi. Shunday bo’lsada, ikkala asar ham o’zlikni anglash uchun qalbga quloq tutish zarurligini ta’kidlaydi.

“Alkimyogar” asari haqida ko’plab ijodkorlar o’z fikrini bildirgan. Shulardan biri, Oprah Winfrey shunday deydi: “Alkimyogar” “ Insonning o’z orzulariga ishonishga undaydi”. Bu fikr asarda Santyagoning o’z taqdirini izlash jarayonida yaqqol namoyon bo’ladi. Bundan tashqari, Oprah ushbu kitobni o’zining kitob klubi orqali kitobxonlarga ko’p bor tavsiya etgan va uni “hayotni o’zgartiruvchi ertak” deb ta’riflagan.

Asarda tabiat unsurlari – cho'l, shamol, quyosh muhim ramziy ma'noga ega. Santyago tabiat bilan "suhbatlashishni" o'rganadi. "Dunyoning tili bor, uni tushungan odam uchun hamma narsa bir – biriga bog'liq.[7]Bu g'oya Sharq falsafasidagi "vahdat ul – vujud" konsepsiyasini eslatadi. Ya'ni, borliq yagona va inson uning ajralmas qismidir. Inson tabiat bilan uyg'unlashgandagina o'zligini anglay oladi. O'zlikni anglash yo'lida eng katta to'siq qo'rquvdir. Asarda bu fikr quyidagicha ifodalanadi: [2]"Orzulariga erishishdan odamlarni bitta narsa to'sadi - muvaffaqiyatsizlikdan qo'rquv".Bu fikr sharq falsafasidagi nafs bilan kurash g'oyasiga uyg'un. Inson o'z qo'rquvlarini yengmagunch, haqiqiy o'zligini anglay olmydi. Santyago esa jasorat bilan bu to'siqlarni yengib o'tadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, "Alkimyogar" romanida o'zlikni anglash insonning ichki uyg'onish sari qilgan murakkab sayohati sifatida tasvirlangan. Santyago obrazi orqali muallif insonning haqiqiy boyligi uning qalbida ekanini ko'rsatadi.

Asarda ilgari surilgan g'oyalar sharq falsafasi, ayniqsa tasavvuf ta'limoti bilan chuqur uyg'unlashadi. Inson o'z qalbini anglab o'z yo'lini topgandagina hayotning asl ma'nosiga yetadi. Shu jihatdan asar nafaqat badiiy, balki chuqur falsafiy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchini o'zligini anglashga chorlaydi.

LUG'ATLAR

1 Murshid – bu tasavvufda { islomiy ruhiy – ma'naviy yo'nalishda } yo'l ko'rsatuvchi ustoz.

2 Tajalli – Allohning borliqda namoyon bo'lishi.

3 Vahdad ul vujud – { arabcha " borliqning birligi" } butun mavjudot aslida yagona haqiqat – Allohning tajallisi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1 Paulo Koelo “ The Alchemist ” 1988

2 Paulo Koelo “ Alkimyogar “ { o’zbek tilidagi tarjima } 2010

3 Abu Hamid G’azzoliy. “ Kimyoi saodat “ 1105

4 Jaloliddin Rumiy “ Masnaviy ma’naviy “ 1258

5 Alisher Navoiy “ Mahbub ul qulub “ 1500

6 Tasavvuf bo’yicha ilmiy manbalar 2000 -2020

7 Sharq falsafasiga oid darsliklar 2015 -2022